

**IQTISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIVAVIY
SOG‘LOMLASHTIRISH METODOLOGIYASI VA MEXANIZMLARINI,
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK VA BANKROTLIK TARTIB-
TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Angren universiteti

Yusupov Ulug‘bek Mamayusupovich

u.yusupov@auni.uz

+998996122770

Annotatsiya: Bugungi global davrda barcha mamlakatlar kesimida moliyaviy nochor korxonalarini moliyalashtirish, subsidiya hamda dotatsiyalar ajratish orqali ko‘plab korxonalar tashkilotlar barqaror rivojlanishiga erishilmoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lomashtirish metodologiyasi hamda mexanizmlari va to‘lovga qobiliyatsizlik va bankrotlik tartib hamda tamoyillarini takomillashtirish omillari keltirilgan. Mashhur iqtisodchilar nazariyalari, korxonalar haqida statistik ma‘lumotlar hamda xulosa va takliflar ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Monopoliya, sanoat, raqobat, siyosat, strategiya, innovatsiya, mexanizm, moliyaviy texnologiyalar.

Kirish:

Bugungi globallashtirish davrda iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lomashtirish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ularni amalga oshirishdagi asosiy omillardan biri esa ma‘lum metodlardan foydalanish orqali erishish mumkin. Korxonalar, tashkilot va muassasalarning raqobatbardoshligini ta‘minlashning zarur sharti davlat tomonidan raqobatni qo‘llab-quvvatlash va monopoliyalarni tartibga solish bo‘yicha maxsus sanoat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Sanoat siyosati - bu davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, biznes va jamiyat o‘rtasidagi tizimli hamda muvozanatli raqobatbardosh iqtisodiyotni va sanoat ishlab chiqarishining yuqori texnologiyali intellektual yadrosini shakllantirish bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir.

Sanoat siyosati iqtisodiyotga davlat ta‘sirining boshqa sohalari, shu jumladan tashqi iqtisodiy, mintaqaviy monopoliyaga qarshi siyosat, ekologik va ijtimoiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, iqtisodiyot faoliyati va rivojlanishining turli bosqichlarida sanoat siyosati aniq maqsadlarga va amalga oshirish vositalariga ega

Adabiyotlar sharhi:

T.Ergashevning fikriga ko‘ra, iqtisodiyotning birinchi ma‘nosi siz bilan bizning, barcha jamiyat a‘zolarining kundalik hayotini, turmush sharoitlarini ta‘minlovchi xo‘jalikdir. Odamlarning turli-tuman moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish aynan

ana shu xo'jalikka bog'liq bo'lib, uning rivojlanganlik darajasi pirovard natijada odamlarning hayot tarzi va sifatini belgilab beradi. Shuning uchun ham xo'jalikni, ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirish har qanday jamiyat (xalq) oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. [1]

Ijtimoiy mehnat taqsimoti qanchalik rivojlangan bo'lsa, inson shunchalik boshqa inson bilan hamkorlik qilishga majbur bo'ladi. Bunday holatda «siz menga kerak narsani bering, men ham sizga kerak narsani beraman» degan prinsip asosida harakat qilinadi. Shu prinsip asosida har bir inson o'ziga kerakli tovar va xizmatlarni oladi. Bozor tarixiy kategoriya bo'lib, u tovar ishlab chiqarish va almashish mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barchasida mavjud bo'lgan, - deya ta'kidlaydi Nabiye H. va G. Nabiyevlar. [2]

Yu.A. Navruzovning iqtisod va iqtisod va tadbirkorlik nomli kitobida bozor infratuzilmalari qatoriga tijorat banklari, birjalar, konsalting firmalari, axborot va marketing markazlari, biznes inkubatorlar, reklama agentliklari, lizing hamda sug'urta kompaniyalari. auditorlik korxonalarini va boshqalar kiradi. Ular tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ko'maklashadi, bozor munosabatlarini tashkil etadi, bozorda tovar-pul harakatini amalga oshiradi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun shartnoma asosida haq oladi va shuning evaziga faoliyatini ta'minlaydi. Alohida tovar ishlab chiqaruvchi. Masalan, paxta yoki g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaligi yuqon noressionallikni va tegishli imkoniyatni talab qiladigan ish va xizmatlarning barchasini bir o'zi uddalay olmaydi. [3]

Tadbirkorlik! Bu hodisa va tushuncha bir qarashda juda oddiy, hammaga ravshandek tuyuladi. Haqiqatan esa, u juda murakkab, ko'p qirrali va buning ustiga, fundamental ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Tadbirkorlik ideologi hisoblangan Y. Shumpeter: tadbirkorlikni barcha turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa bo'lib, ularning nafaqat tarkibiy qismi, balki iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch, deb ta'kidlab o'tgan [4]

Ustav kapitalining kafolat funksiyasi bo'yicha esa ustav kapitali kreditorlar oldidagi majburiyatlar bo'yicha yuridik shaxs javobgarligini ta'minlovchi minimal mol-mulkni aks ettiradi. Kafolat funksiyasi bo'yicha ustav kapitali o'ziga xos zaxira fondi hisoblanib, yuridik shaxs majburiyatlarini bajarmagan taqdirda uning kreditorlari o'z talablarini ushbu fond orqali qanoatlantirishi mumkin bo'ladi. Ta'sischi(ishtirokchilar) javobgarligi ularning yuridik shaxs ustav kapitalidagi ulushi bilan cheklanar ekan, kreditorlar manfaatlari himoyasi hamda fuqarolik muomalasi barqarorligi ta'minlanishida ustav kapitali muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

Ushbu masala yuzasidan Y.E. Suxanovning ta'kidlashicha, ustav kapitali kontinental yevropada roman-german huquq tizimida nafaqat kreditorlar manfaatlari himoya qilishning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda kreditorlar manfaati

ustav kapitali miqdoriga, uni ko'paytirish yoki kamaytirish, pul shaklida bo'lmagan aktivlarning baholash tartibiga oid qonunchilik talabari bilan ta'minlanadi.

Tahlil va natijalar:

Mamlakatimizda kreditorlar da'volarini qondirish maqsadida xo'jalik yuritish sub'ektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo'lgan deb e'tirof etish shartlari va tartibi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda belgilab berilgan, lekin u o'z faoliyatini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan korxonatashkilotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Ushbu qonunda belgilanishicha, bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) deganda, iqtisodiy sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

Bugungi kunda bankrotlik masalasi qonunchiligimizda yangi tushuncha bo'lishiga qaramasdan, hozirda dolzarb va muammoli masalalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki bankrotlik nafaqat mulk egasining manfaati, balki kreditorlar, mehnat jamoasi, hamkorlar va boshqa shaxslar uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun korxonalar faoliyatining bankrotlik holatini to'xtatish zarur hisoblanadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 13-martdagi 26-son buyrug'iga hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi to'g'risida vaqtinchalik nizomga muvofiq budjet siyosati va budjetlararo munosabatlar sohasini takomillashtirish, davlat budjeti ijrosini tashkil etish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi amalga oshirilishini ta'minlash hamda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, urbanizatsiya siyosatini yuritish, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditorlik faoliyatini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, investitsiya siyosatini yuritishda ishtirok etish, iqtisodiyot tarmoqlarining va hududlarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va strategiyalarini uzoq muddatli rivojlanishning milliy maqsadlariga muvofiqlashtiradi va monitoring qiladi.

Hududlar geografik joylashuvini foydalanilmayotgan tabiiy va mehnat resurslari va infratuzilma imkoniyatlarini o'rganadi hamda ularni rivojlantirishga turtki beradigan o'sish nuqtalarini aniqlaydi. Shuningdek, hududlarning o'sish nuqtalari asosida ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda monitoringini yuritishning yagona tizimini yaratadi va takomillashtirib boorish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish jarayonida loyihalarni, xususan, ishlab chiqarish kuchlari, infratuzilma va turar joylarni hududga tabiiy, iqtisodiy, arxitektura-qurilish, hamda iste'mol bozori kabi omillarni inobatga olgan holda maqbul joylashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash tuman va shaharlarning sharoitini, salohiyatini hamda imkoniyatlarini baholash va ular

o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish yuzasidan takliflarni amalga oshirish bugungi kundagi iqtisodiy barqarorlikka erishishning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 97ta turdagi subsidiyalar mavjud.

Ushbu subsidiyalar hamda dotatsiyalarni amalda joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikamizda 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra sanoat sohasida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni 109 527 ta bo‘lib, ularning o‘shish sur‘ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,7 %ni tashkil etdi.

So‘nggi yillarning mos davrida ushbu sohada ro‘yxatdan o‘tgan korxonalarning dinamikasi quyidagicha:

2019-yilda – 71 670 ta

2020-yilda – 85 278 ta

2021-yilda – 99 034 ta

2022-yilda – 103 575 ta

2023-yilda – 109 527 tani tashkil etgan. Bundan tashqari, 2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan 461,6 ming tijorat korxonalarini va tashkilotlaridan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 313,4 mingtani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar O‘zbekistondagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o‘shish savdo (123,4 foiz), axborot va aloqa (122,3 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (119,6 foiz) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (117,8 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida esa Qashqadaryo (129,3 foiz), Surxondaryo (124,7 foiz), Samarqand (122,0 foiz) va Farg‘ona (120,3 foiz) viloyatlarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish kuzatilgan. [6]



1-Rasm: Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot9 (2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda).

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan 461,6 ming tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 313,4 mingtani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar O‘zbekistondagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o‘shish savdo (123,4 foiz), axborot va aloqa (122,3 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (119,6 foiz) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (117,8 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida esa Qashqadaryo (129,3 foiz), Surxondaryo (124,7 foiz), Samarqand (122,0 foiz) va Farg‘ona (120,3 foiz) viloyatlarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish kuzatilgan.

Xulosa va takliflar:

Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o‘rinni albatta korxonalar egallaydi, sababi aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o‘zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o‘zini o‘zi ta‘minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Ma‘lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda mamlakat aholisining moddiy va ma‘naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarining muvaffaqiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Korxonalar va tashkilotlarning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni, shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishi hisoblanadi, boshqa tomondan yondashsak, korxonalar bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo‘lib, u yerda yakka iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o‘zaro aloqada bo‘ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak. Shu bilan birgalikda, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug‘ullanmaydi. Shuningdek, bozor tizimida hamma narsa o‘z narxiga ega bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalar narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo‘lsak, unda o‘z-o‘zidan narxlar hamda ishlab chiqarish muvozanatini sinov, xatolar orqali ta‘minlaydigan keng tizimga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Ergashev bozor iqtisodiyoti 2005 darslik
2. Nabiyev H G‘.Nabiyeв iqtisodiy statistika 2008
3. Yu.A. Navruzov iqtisod va iqtisod va tadbirkorlik 2008
4. Halim Rajabovich Hamroyev, Tadbirkorlik assoslari 2010
5. Глянцева Д.Ю. правовое природа уставного капитала акционерного общества // дис. канд. юрид. наук. М., 2016. – 35с.

6. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar ma'lumotnomasi 2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari). Stat.uz
7. Iqtisodiy tahlil darslik Q.Pardayev 2004
8. Nasirov B.U., Boltaeva M.J. Genesis and Transformation of the Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – T. 12. – C. 5834–5841.
9. Норбеков Х., & Туйчиева Н. (2022). Формирование конкурентных преимуществ компании. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 589–592. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5351>.

